

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI  
VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Ilmiy ishlar va xalqaro  
aloqalar bo'yicha prorektor  
R. Shirmova**

**2026-yil**



**12.00.02. – “Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga  
kirish imtihoni**

**DASTURI**

**TOSHKENT – 2026**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

O.T. Xusanov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, y.f.d

Sh.G‘. Asadov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, y.f.d

**Taqrizchilar:**

X.S. Xayitov – yuridik fanlari doktori, professor

D.M. Bekchanov – yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

## KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mutaxassislarning malakaviy darajasini ko‘tarish va xalqaro andozalarga mos keluvchi kadrlarning yangi avlodini shakllantirishni talab etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimining barcha turlarini, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmogda. Shuningdek, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan oliy ta‘limning ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura ta‘lim dasturlari shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoniga muvofiq mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur‘atlar oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg‘or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmogda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmogda. Shundan so‘ng Hukumat qaroriga asosan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limga qo‘yiladigan davlat talablari”, “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim to‘g‘risidagi nizom” qabul qilindi.

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi “Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-78-son Farmoni asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, 12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq, Ma‘muriy huquq, Moliya va bojxona huquqi ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, Konstitutsiyaviy huquq, Ma‘muriy huquq, Moliya huquqi, va Bojxona huquqi fanlarida ko‘zda tutilgan masalalarni qamrab olgan hamda oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kiruvchilarning ushbu fanlardan nazariy va amaliy bilimlarini atroflicha baholash maqsadida tuzilgan.

## ASOSIY QISM

### Konstitutsiyaviy huquq

Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi. Konstitutsiyaviy huquqiy normalar. Konstitutsiyaviy huquqiy normalarning tuzilishi, Konstitutsiyaviy huquq –huquq tarmog‘i. Konstitutsiyaviy huquq manbalari.

Konstitutsiyaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, yaratilishi va rivojlanishi. O‘zbekiston Konstitutsiyasini yaratilishi, unda xalq ishtiroki. Konstitutsiya yaratilishida e‘tiborga olingan holatlar. Konstitutsiyani boshqa qonunlardan farqi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya prinsiplari, Konstitutsiyaviy prinsiplar ahamiyati. Konstitutsiyani amal qilinishi. Konstitutsiyani muhofaza qilish. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar.

O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi.

“Suverenitet” tushunchasi va uning turlari. Suverenitetni cheklash. O‘zbekiston boshqaruv shakli, unga ta’sir qiluvchi omillar. Davlat suverenitetini saqlash chora-tadbirlari.

Ijtimoiy hokimiyat tizimida davlat hokimiyati. Davlat hokimiyati tizimi, uni bo‘linishi. O‘zbekistonda belgilangan oliy hokimiyat. Davlat faoliyatining asosiy prinsiplari va ularni munosabati. Davlat va jamiyat hayotida fuqarolarni ishtirok etish yo‘llari.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi. Uni ta’minlanishi. Konstitutsiya va boshqa qonunlarni mutanosiblik darajasi.

Shaxsning huquqiy maqomini belgilashda fuqarolik. Fuqarolarning huquqiy asoslari. Fuqarolarning huquqiy himoyasi.

Inson va fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari. Shaxs huquq va erkinliklarini Konstitutsiyaviy va huquqiy turlari. Ularni vujudga kelishi. Huquq va erkinliklarni vujudga kelishida davlatning roli. Inson va fuqarolarning asosiy burchlari, ularning vujudga kelishi.

O‘zbekistonning iqtisodiy tizimi, uning Konstitutsiyaviy asoslari. Davlatning iqtisodni boshqarishdagi roli.

Jamoat birlashmalari. Ularning turlari. Jamoat birlashmalarining jamiyatdagi o‘rni. Jamoat birlashmalarini tuzish, faoliyatini to‘xtatish, taqiqlash. Siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun kurashish yo‘llari. Siyosiy partiyalarni faolligini oshirish borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan tadbirlar.

Oilani jamiyatdagi o‘rni. Ota-onalar va farzandlarni Konstitutsiyaviy burchlari (manbalari).

Ommaviy axborot vositalari va ularga qo‘yiladigan talablar.

O‘zbekistonning ma’muriy-huquqiy tuzilishi. Prinsiplari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi huquqiy maqomi. O‘zbekiston bilan munosabati.

O‘zbekiston saylov tizimi. Uni takomillashib borishi. Senatorlarni saylashning o‘ziga xos xususiyatlari. Saylov qonunchiligidagi o‘zgarishlar.

Oliy Majlisning hokimiyat tizimidagi o‘rni. Tashkil qilinishi, o‘ziga xos xususiyatlari. Oliy Majlis vakolatlarini kengayib borishi. Qonunchilik tashabbusi, uning subyektlarini qonunchilik jarayonida ishtiroki. Siyosiy partiyalar fraksiyalari, ularni rolining kengayib borishi.

Prezidentlik institutini vujudga kelishining ahamiyati. Prezident maqomining o‘zgarib borishi. Davlat hokimiyatidagi o‘rni.

Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi. Vazirlar Mahkamasini vakolatlari va mas’uliyatini kuchayib borishi. Bosh vazir mavqeyi, uning vakolati va mas’uliyati.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, vazifalari, tashkil bo‘lishi va faoliyatining asosiy prinsiplari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida hokimiyat bo‘linish prinsipini qo‘llash. Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini mahalliy davlat hokimiyatini rivojlantirishga ta’siri.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ularni jamiyatdagi o‘rni va vazifalari. Ishni tashkil qilish. O‘zini o‘zi boshqarishdagi muammolar.

Sud hokimiyati. Sud hokimiyati tizimi va faoliyatidagi islohotlar. Sud tarmoqlarini vazifasi, tashkil etish jarayonida fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida ularning vakolatlarini kengayib borishi.

Prokuratura organlari vazifasi, hokimiyat tizimidagi o‘rni. Tashkil etish va faoliyatidagi prinsiplar. Prokuratura tizimida o‘tkazilgan islohotlar, muammolar.

Advokaturaning vazifasi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi.

Respublika moliya, pul-kredit va bank tizimi. Ularni rivojlantirish borasidagi islohotlari. Soliq tizimi sohasidagi islohotlar.

Mudofaa va xavfsizlikni ta‘minlash faoliyatini takomillashtirish. Qurolli kuchlar tizimi, unga rahbarlik qilish.

## **Ma‘muriy huquq**

Ma‘muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi. Tartibga solishning ma‘muriy-huquqiy usuli. Ma‘muriy huquqning O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o‘rni. Ma‘muriy huquq tizimi. Ma‘muriy huquq manbalari. Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi. Ma‘muriy tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar.

“Boshqaruv” tushunchasi va turlari. Boshqaruv metodologiyasi va usullari. Boshqaruvda tizimli yondashuv. Davlat boshqaruvi nazariyasi: maktablar, yo‘nalishlar. Davlat boshqaruvi mazmuni va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat boshqaruvi elementlari. Davlat boshqaruvining asosiy va tashkiliy-funksional prinsiplari. “Davlat boshqaruvi funksiyalari” tushunchasi va turlari. Davlat boshqaruv tizimida kadrlarni tanlash va tayinlash mexanizmi. Davlat tizimida amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar.

“Davlat boshqaruvi subyektlari” tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvi subyektlarining huquq va muomala layoqati. Davlat boshqaruvining individual subyektlari (fuqarolar, davlat xizmatchilari). Davlat boshqaruvining kollegial subyektlari (davlat organlari, nodavlat tashkilotlar). Davlat boshqaruvi subyektlari huquqlarini himoya qilish.

“Ijro hokimiyati” tushunchasi va tizimi. Ijro hokimiyati va davlat boshqaruvining o‘zaro munosabati. Ijro hokimiyati tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining tashkiliy shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuzilishi.

“Davlat organlari” tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvi organlari va ularning davlat mexanizmida tutgan o‘rni. Davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari. Davlat boshqaruvi organlarining tasnifi. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va vazifalari. Markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining o‘zaro munosabatlari.

“Davlat fuqarolik xizmati” tushunchasi, huquqiy tabiati va asosiy prinsiplari. “Davlat xizmatchilari” tushunchasi va turlari. Davlat fuqarolik xizmatchilari ma‘muriy-huquqiy holatining asoslari. Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tartibi va uni ma‘muriy-huquqiy tartibga solish. Davlat xizmati munosabatlari. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash sharoitida davlat xizmatini modernizatsiyalash.

“Davlat boshqaruvi faoliyatining ma‘muriy-huquqiy shakllari” tushunchasi va xususiyatlari. Huquqiy va nohuquqiy shakllar. Davlat boshqaruvi aktlari. Ma‘muriy-huquqiy shartnomalar. Yuridik ahamiyatli xatti-harakatlar. Davlat boshqaruvi faoliyatining ma‘muriy-huquqiy usullari mazmuni va turlari. Ishontirish davlat boshqaruvi usuli sifatida. Majburlash davlat boshqaruvi usuli sifatida.

“Ma‘muriy jarayon” tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Ma‘muriy yurisdiksiya: asosiy xususiyatlari, prinsiplari, tuzilishi. Ma‘muriy jarayon prinsiplari. Ma‘muriy jarayon subyektlari va ularning huquqiy maqomi. “Ma‘muriy-protsessual normalar” tushunchasi va turlari. Ma‘muriy-protsessual munosabatlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

“Ma’muriy javobgarlik” tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari. Ma’muriy javobgarlikning qonunchilik asoslari. “Ma’muriy huquqbuzarlik” tushunchasi va uning xususiyatlari. Ma’muriy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi. Ma’muriy javobgarlik subyektlarining turlari. “Ma’muriy jazo” tushunchasi va choralari. Ma’muriy jazoni qo‘llash tartibi. Ma’muriy javobgarlikni istisno etuvchi holatlar. Ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar. Ma’muriy javobgarlikning jamoat ta’siri choralari bilan uyg‘unlashishi. Ma’muriy javobgarlikdan ozod etish. Yuridik shaxslarning ma’muriy javobgarligi. Alohida turdagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik.

Ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish bosqichlari. Ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini qo‘zg‘atish. Ma’muriy huquqbuzarlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish va ish bo‘yicha qaror qabul qilish. Ma’muriy huquqbuzarlik ishlari bo‘yicha chiqarilgan qarorlar ustidan shikoyat berish va protest bildirish. Ma’muriy jazo choralari qo‘llash to‘g‘risidagi karorlarini ijro etish.

“Davlat boshqaruvida qonuniylik” tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvida intizom. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta’minlash usullari. Vakillik organlarining nazorati. Prezident nazorati. Hukumat nazorati. Sud nazorati. Prokuror nazorati. Shikoyat qilish.

## **Moliya huquqi**

“Moliya” tushunchasi va funksiyalari. O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy tizimi, uning tarkibi. “Davlatning moliyaviy faoliyati” tushunchasi va uning elementlari. Davlat moliyaviy faoliyatining prinsiplari. Davlat pul mablag‘lari jamg‘armalarini tashkil etish usullari. Davlat pul mablag‘lari jamg‘armalarini taqsimlash usullari. Davlat pul mablag‘lari jamg‘armalaridan foydalanish usullari.

Moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining huquqiy maqomi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va mahalliy vakillik hokimiyati organlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy ijro hokimiyati organlari; O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish sharoitida davlat moliyaviy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. “Davlat moliyaviy faoliyati shakllari” tushunchasi va turlari. Moliyaviy-huquqiy aktlar tushunchasi va asosiy xususiyatlari. Moliyaviy-huquqiy aktlariga qo‘yiladigan talablar. Moliyaviy-huquqiy aktlarning tasnifi.

“Moliya huquqi” predmeti va tushunchasi. Moliya huquqini tartibga solish usuli. Moliya huquqining tizimi. Moliya huquqining boshqa huquq sohalari bilan o‘zaro munosabati. Moliya huquqi prinsiplari. “Moliya huquqi manbalari” tushunchasi va turlari.

“Moliyaviy nazorat” tushunchasi va iqtisodiyotni liberalizatsiyalash sharoitida uning vazifalari. Moliyaviy intizom. Moliyaviy nazorat turlari. Davlat moliyaviy nazorati, uning bo‘g‘inlari: parlament nazorati, hukumat nazorati. Hisob palatasining moliyaviy nazoratda tutgan o‘rni. Auditorlik nazorati tizimi. Ichki moliyaviy nazorat. Moliyaviy nazorat usullari: tekshirish va taftish.

“Davlat va mahalliy byudjetlar” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida byudjet huquqi predmeti va manbalari. Byudjet huquqiy munosabatlari va uning xususiyatlari. Byudjet huquqi subyektlari: davlat va uning ma’muriy-hududiy tuzilmalari; barcha darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari; davlat va mahalliy korxonalar, tashkilotlar va muassasalar. Mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilish sharoitida O‘zbekiston Respublikasining byudjet siyosati. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi va xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va uning elementlari. Byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlar va xarajatlarni taqsimlash. Byudjetni tartibga solish yo‘nalishlari va usullari. Byudjet jarayoni va uning prinsiplari. Byudjet jarayonining bosqichlari. “Davlat maqsadli jamg‘armalari” tushunchasi va turlari. Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etish maqsadi va asosiy vazifalari, manbalari va xarajat yo‘nalishlari.

“Soliqlar tushunchasi” va funksiyalari. Soliqlarning tasnifi. Soliq huquqi va uning manbalari. Soliqlar haqidagi qonunlarning elementlari. Soliq subyektlarining turlari va ular

huquqiy maqomining xususiyatlari. Soliq huquqida rezidentlar va nerezidentlar. Soliq stavkalari va soliqlar bo'yicha imtiyozlarning turlari. Soliq huquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari. "Umumdavlat soliqlar" tushunchasi va tizimi to'lovchilar, soliq solish obyekti, imtiyozlar tizimi, hisoblash, to'lash tartibi va muddatlari. "Mahalliy soliqlar va yig'imglar" tushunchasi va turlari: to'lovchilar, soliq solish obyekti, imtiyozlar tizimi, hisoblash, to'lash tartibi va muddatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tushunchasi va asosiy xususiyatlari. Sug'urtaning funksiyalari. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari). Sug'urta faoliyatining huquqiy asoslari. Sug'urta faoliyati subyektlari: sug'urta qiluvchilar, sug'urta vositachilari (sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti). Sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish.

"Davlat xarajatlari" tushunchasi va uning tarkibi. Davlat xarajatlarining tasnifi: iqtisodiy mazmuni bo'yicha, hududiy va tarmoq belgisi bo'yicha, pul mablag'lari jamg'armalarining turlariga qarab. Bozor munosabatlari sharoitida O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida davlat xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlari. "Byudjetdan moliyalashtirish" tushunchasi va prinsiplari.

"Smeta-byudjet yo'li bilan moliyalashtirish" tushunchasi va uning obyekti. Smeta-byudjet muassasalari, uning tuzilishi va turlari. Byudjet muassasasi smetasini tuzish, tasdiqlash va rasmiylashtirish tartibi. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari va ularning turlari. Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish xususiyatlari.

"Bank va bank faoliyati" tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huquqiy maqomining xususiyatlari. Markaziy bankning davlat boshqaruv organi sifatidagi vakolatlari. Markaziy bankning monetar siyosat ishlab chiqish, naqd pul emissiyasini amalga oshirish va ularni muomalada bo'lishini tashkil etish, valyutani tartibga solish va valyuta nazorati, banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularga litsenziyalar berish bo'yicha funksiyalari. Markaziy bankning mamlakat hukumatining maslahatchisi va fiskal agenti sifatidagi funksiyalari. Markaziy bank xo'jalik faoliyatining ishtirokchisi (yuridik shaxs) sifatida. Tijorat banklari maqomining huquqiy asoslari. Tijorat banklari turlari. Banklarni ro'yxatdan o'tkazish va ularni litsenziyalash tartibi. Tijorat banklari faoliyatini tugatish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nazorat funksiyalari. Bank operatsiyalari.

"Pul muomalasi" tushunchasi va uning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining pul tizimi. Banklar tomonidan pul muomalasini tashkil etish tartibi. Muomalada bo'lgan pul belgilaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar. Muomalaga yaroqsiz bo'lgan banknotlar va tangalarni almashtirish, shuningdek, pul belgilarini muomaladan chiqarish tartibi. O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish tartibi.

Moliya huquqi bilan tartibga solinadigan hisob-kitob munosabatlarining xususiyatlari. "Naqd pulsiz hisob-kitoblar" tushunchasi va ularni tashkil etish asoslari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning huquqiy shakllari. To'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi. Inkasso bo'yicha hisob-kitoblarning o'ziga xosligi. "Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli" tushunchasi. Tijorat banklarining hisob-kitob cheklari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish. Plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish xususiyatlari va ularni qo'llashning afzalliklari. Hisob-kitob intizomini buzganlik uchun banklar va mijozlarning javobgarligi.

Valyutani tartibga solish: asosiy tushunchalar (valyuta boyliklari, chet el valyutasi, valyuta operatsiyalari, vakolatli banklar). Valyuta boyliklari turlari. Valyuta boyliklariga ega bo'lish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish tartibi. "Valyuta operatsiyalari" tushunchasi va turlari. O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi hisob-kitoblar va to'lovlar. Naqd chet el valyutasi va milliy valyutani olib kirish va olib chiqish. Valyutani tartibga solish va valyuta resurslarini boshqarishda moliya hamda bank tizimining funksiyalari. Valyuta nazorati. Valyuta qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

Qimmatli qog'ozlarning umumiy tavsifi. Qimmatli qog'ozlarning turlari: aksiya, obligatsiya, veksel, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari. Qimmatli qog'ozlarni muomalaga

chiqarish qoidalari. “Qimmatli qog‘ozlar bozori” tushunchasi va uning funksiyalanishi prinsiplari. Qimmatli qog‘ozlar bozori subyektlari va ular huquqiy maqomining asoslari. Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli organlar tizimi va ularning vakolatlari.

## **Bojxona huquqi**

Bojxona huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi. Bojxona huquqining tartibga solish usuli. Bojxona huquqining tizimi. Bojxona huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro munosabati. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi bojxona huquqining asosi manbasi sifatida. Bojxona sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me‘yoriy hujjatlari.

“Bojxona huquqiy normalari” tushunchasi va tuzilishi. Bojxona huquqiy normalarining turlari. Bojxona huquqiy normalarini amalga oshirish. Bojxona huquqiy normalarning vaqt bo‘yicha, hudud bo‘yicha va shaxslar doirasi bo‘yicha xarakati. Bojxona huquqiy munosabatlarining yuridik tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari. Bojxona huquqiy munosabatlarning turlari. Bojxona huquqiy munosabatlarining yuzaga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi asoslari.

Davlat bojxona organlarining shakllanishi va rivojlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining huquqiy maqomi. Bojxona komplekslari. Bojxona postlari. Davlat bojxona xizmati organlarining boshqa davlat organlari bilan o‘zaro munosabati.

Tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish huquqi. Tovarlar va transport vositalarini olib kirish va olib chiqishda taqiqlar va cheklovlar. Erkin muomalaga chiqarish. Reimport. Eksport. Reeksport. Tranzit. Vaqtincha olib kirish (olib chiqish). Tovarlarini vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirish mumkin bo‘lgan muddat. Vaqtincha saqlash. Bojxona ombori. Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan va eksport rejimiga ko‘ra olib chiqishga mo‘ljallangan tovarlarni bojdan, soliqlardan ozod qilish yoki to‘langan summalarni qaytarish. Erkin bojxona zonasi va erkin ombor. Erkin bojxona zonasi yoki erkin ombor rejimlariga joylashtiriladigan tovarlarga nisbatan boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanishi. Boj olinmaydigan savdo do‘koni. Tovarlarini qayta ishlash. Tovarlarini qayta ishlash shartlari. Bojxona hududida qayta ishlash. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash. Tovarlarini qayta ishlash muddatlari. Tovarlarini qayta ishlashni tugallash. Yo‘q qilish. Davlat foydasiga voz kechish.

“Bojxona nazorati” tushunchasi va xususiyatlari. Bojxona nazoratidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tovarlar va transport vositalari. Bojxona nazorati shakllari. Bojxona nazorati zonalari. Bojxona nazorati uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma‘lumotlar. Tovarlarini bojxona nazorati ostida saqlash va realizatsiya qilish. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish joyi, vaqti va muddati. Tovarlar va transport vositalari bilan bojxona rasmiylashtiruvini uchun zarur bo‘lgan operatsiyalarni o‘tkazish. Bojxona rasmiylashtiruvini o‘tkazish uchun namuna va nusxalar olish. Bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibi. Bojxona rasmiylashtiruvini tugallanmagan tovarlar va transport vositalaridan foydalanish hamda ularni tasarruf etish. Dastlabki operatsiyalar. Deklaratsiyalash.

“Bojxona to‘lovlari” tushunchasi va turlari. Boj. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Aksiz solig‘i. Bojxona yig‘imlari. Bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqish asoslari. Bojxona to‘lovlarini to‘lovchilar. Bojxona to‘lovlarini to‘lash muddatlari. Bojxona to‘lovlarini to‘lash tartibi. Bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash. Bojxona to‘lovlarini undirish va javobgarlik choralari. Ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarini qaytarish.

“Bojxona qonunchiligini buzish” tushunchasi va uning ko‘rinishlari. Bojxona huquqbuzarligi va uning mazmuni. Yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona qonunchiligini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga binoan javobgarligi. Yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona qonunchiligini buzganlik uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik masalalari. Davlat bojxona xizmati organlarining javobgarligi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish muddatlari. Bojxona

haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalar. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishning yuritilishini ta'minlash. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarning ko'rishga taalluqliligi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bojxona organining qarori. Bojxona organining qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish). Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo berish to'g'risidagi qarorni ijroga qaratish.

**12.00.02. – “KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA  
BOJXONA HUQUQI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA NAMUNAVIY  
SAVOLLARI**

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati.
2. Konstitutsiyaviy huquqiy normalar
3. Konstitutsiyaviy huquq manbalari
4. Konstitutsiyaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni
5. O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy davlat ekanligi
6. O‘zbekiston ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi
7. Davlat va jamiyat hayotida fuqarolarni ishtirok etish yo‘llari.
8. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi
9. Shaxsning huquqiy maqomi
10. Inson va fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari
11. Inson va fuqarolarning asosiy burchlari, ularning vujudga kelishi
12. O‘zbekistonning iqtisodiy tizimi, uning Konstitutsiyaviy asoslari
13. Jamoat birlashmalari
14. Siyosiy partiyalarni faolligini oshirish borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan tadbirlar
15. Ommaviy axborot vositalari va ularga qo‘yiladigan talablar
16. O‘zbekistonni ma’muriy-huquqiy tuzilishi
17. O‘zbekiston saylov tizimi
18. Senatorlarni saylashning o‘ziga xos xususiyatlari
19. Prezidentlik institutini vujudga kelishining ahamiyati
20. Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi
21. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi
22. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari
23. Sud hokimiyati tizimi va faoliyatidagi islohotlar
24. Prokuratura organlari vazifasi, hokimiyat tizimidagi o‘rni
25. Advokaturining vazifasi va faoliyat ko‘rsatishi.
26. Soliq tizimi sohasidagi islohotlar
27. Ma’muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi
28. “Boshqaruv” tushunchasi va turlari
29. Davlat boshqaruvining asosiy va tashkiliy-funksional prinsiplari
30. “Davlat boshqaruvi funksiyalari” tushunchasi va turlari
31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari
32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining tashkiliy shakllari
33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuzilishi.
34. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari.
35. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari
36. Davlat organlari tushunchasi va xususiyatlari
37. Davlat fuqarolik xizmati tushunchasi, huquqiy tabiati va asosiy prinsiplari
38. “Davlat boshqaruvi faoliyatining ma’muriy-huquqiy shakllari” tushunchasi va xususiyatlari
39. “Ma’muriy jarayon” tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari
40. Ma’muriy javobgarlikning qonunchilik asoslari
41. Ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish bosqichlari
42. Davlat boshqaruvida intizom
43. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta’minlash usullari
44. Moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining huquqiy maqomi
45. “Moliya huquqi” predmeti va tushunchasi

46. “Moliyaviy nazorat” tushunchasi va iqtisodiyotni liberalizatsiyalash sharoitida uning vazifalari
47. “Davlat va mahalliy byudjetlar” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati
48. “Soliqlar tushunchasi” va funksiyalari
49. Soliqlar turlari
50. Soliq nazorati
51. Bojxona huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi
52. Tovarlar va transport vositalarini olib kirish va olib chiqishda taqiqlar va cheklovlar
53. “Bojxona nazorati” tushunchasi va xususiyatlari
54. Bojxona rejimlari va ularning xususiyatlari
55. Bojxona to‘lovlari va uning turlari
56. Yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona qonunchiligini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga binoan javobgarligi
57. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish muddatlari
58. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining huquqiy maqomi
59. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 74-maqsadi “Aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish” mazmunini tushuntirib bering.
60. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 75-maqsadi “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish” mazmunini tushuntirib bering.
61. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 76-maqsadi “Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish” mazmunini tushuntirib bering.
62. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 77-maqsadi “Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish” mazmunini tushuntirib bering.
63. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 78-maqsadi “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish” mazmunini tushuntirib bering.
64. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 79-maqsadi “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish” mazmunini tushuntirib bering.
65. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 80-maqsadi “Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish” mazmunini tushuntirib bering.
66. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 81-maqsadi “Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish” mazmunini tushuntirib bering.
67. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 82-maqsadi “Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish” mazmunini tushuntirib bering.
68. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 83-maqsadi “Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish” mazmunini tushuntirib bering.
69. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 85-maqsadi “Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma‘muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish” mazmunini tushuntirib bering.
70. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 86-maqsadi “Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish” mazmunini tushuntirib bering.

71. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 88-maqsadi “Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish” mazmunini tushuntirib bering.

72. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 89-maqsadi “Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish” mazmunini tushuntirib bering.

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

### *Normativ-huquqiy hujjatlar:*

- 1) O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi 2021-yil 20-apreldagi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.
- 2) O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi 2014-yil 5-may Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda.
- 3) O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi 2014-yil 25-sentyabr Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2014, № 39, 488-modda.
- 4) O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 11-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2014, № 49, 578-modda.
- 5) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 18-noyabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni // O'zR QXT, 2015-y., 49-son, 611-modda
- 6) O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni // O'zR QXT, 2017-y., 1-son, 2-modda
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi Qarori 05.03.2014-yildagi PQ-2142-son.
- 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4904-sonli Farmoni // O'zR QXT, 2017-y., 1-son, 5-modda.
